

## TERMIZ SHAHRINING PAYDO BÒLISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti 1-kurs talabasi Haitboboyeva Charos Abdurahmon qizi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada òzining boy madaniyati, kòp asrlik tarixi va „Erlar shahri“ deya ta'rif beriladigan, qadimiy shaharlar orasida òz òrniga ega bòlgan Órta Osiyo hududida joylashgan, qadimdan turli xil nomlar bilan atalib kelingan Termiz shahri haqida sòz boradi.*

**Kalit sòzlar:** *Tarmita, Tami, Tarmid, Talima, Tarmiz, Drmat, Demetriy, Aleksandr Makedonskiy, Antiox I, Dxarmamitra, Tabariy, Kabod, Xofizi Abru, V. Tomashek*

Órta Osiyodagi qadimiy shaharlar orasida o'zining asran tarixi va taraqqiyotning yuksak chòqqisiga erishgan boy madaniyati bilan ajralib turadigan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy markazlardan biri, eng qadimgi va kòhna shahar Termiz hisoblanib kelinadi. Shaharning qulay joyda joylashganligi, ya'ni Amudaryo bòyida barpo etilganligi qadimdan savdo va karvon yòllari uchun asosiy tòxtab òtish markazi bòlib xizmat qilib kelgan hisoblanadi. Shaharning eng qadimgi nomi qanday bòlganligi, aynan qachondan Termiz nomi bilan boshlanganligi haqida va Termiz nomi aynan qanday ma'noni bildirishi haqida aniq bir manbani uchratmaymiz. Negaki, turli manbalarda bu kòhna shaharning nomi turlicha atalib kelingan. Xususan, IV-V asrlardagi qadimgi arman manbalariga yuzlanadigan bòlsak shahar nomi, „Drmat“ deb atalgan. VII asrga oid Xitoy manbalarida, „Tami“ nomi bilan ma'lum bòlgan bòlsa, XIV asrga oid manbalarda „Talima“ deb qayd qilinganini kòrishimiz mumkin. IX-XI asrlarga oid arab-fors manbalarida shaharning nomi „Tarmid“, „Tarmiz“, „Tirmiz“ shaklida bòlgan. Termizga nisbatan ishlatilgan bu nomlar uning eng qadimgi shaharlardan biri bòlganligi va qanchalar mashhur bòlganidan darak beradi. XII asrda yashagan tarixchi Somoniyning xabar berishicha „Tarmiz“ nomi qadimdan ma'lum bòlgan. Yoqut XIII asrlarda tuzgan óz lu'gatida shaharning nomi 2 xil ya'ni, „Tarmiz“ va „Tirmiz“ deya talaffuz qilinganini yozadi. IX-XIII asrlarda shaharda zarb qilingan tangalarda ham shaharning nomi „Tarmiz“ deb qayd etilgan. Kitoblardan birida Dxarmamitra degan Toxaristonlik buddizm tar'gibotchisini nomini uchratishimiz mumkin. Qiziq tomoni shundaki, u Vaxshu Amudaryo daryosi bòyida joylashgan Tarmita shahridan ekanligi qayd etilgan. Dxarmamitra nomining tarixdagi ahamiyati shundan iboratki, u kohin budda asarlarini hind tiliga tarjima qilgan shaxs hisoblanadi. Dxarmamitraning Tarmita shahrida yashaganligi biz uchun ahamiyatlidir. Agarda biz Tarmita va Termiz sòzlarini ózaro solishtirib kòradigan bòlsak, ularda òxshashlik borligini payqaymiz. Demak, Tarmita Termizning eng qadimgi nomlaridan biri bòlgan deb hisoblasak ham bòladi. Shaharning nomi qanday ma'noni bildirganligi haqida biror ma'lumot topilmagan. IX asrda yashagan mashhur avstriyalik sharqshunos olim V. Tomashek Termiz sózi qadimgi baqtr sòzidan „tara maetho“ dan olingan bòlib, Daryoning narigi sohilidagi manzilgoh degan ma'noni anglatadi-deb òz fikrini bildirgan. Bu fikrni tarixiy haqiqatga yaqin deb olsak bòladi. Chunki, Termiz Amudaryoning òng sohilida joylashgan hisoblanadi. Shaharning nomini kelib chiqishi bòyicha

bir qancha fikrlar ham bor bòlib, taniqli arxeolog M.E. Masson shaharning nomi Yunon-Baqtriya shohi Demetriyning ismidan kelib chiqqanligini qayd etib òtadi. Demetriy Yunon-Baqtriya taxtini mil.avv.199-167-yillarda idora etgan. M.E. Masson fikricha, podsho Demetriy nomining Demetriy-Demetriata-Darmita tarzida òzgartirilib talaffuz etish tufayli Tarmita-Tarmit-Termiz hosil bòlgan. Bu shaharning ilk bor yozma manbada tilga olinishini tarixchi olimlardan K. Rapen, F. Grene, Sh. Rahmonovlar miloddan avvalgi 329-yilga oid deb ta'kidlaydilar. Shaharning barpo etilishi haqida ham turli xil farazlar bor. Manbalardan birida shaharga Aleksandr Makedonskiy asos solgan deyilsa, boshqa bir manbalarda Yunon-Baqtriya shohi Demetriy tilga olinadi. Manbalar bilan tanishish davomida Baqtriyada Aleksandr Makedonskiy, sòngra Salavkiylar va Yunon-Baqtriya shohlari tomonidan juda kòplab yirik shaharlar barpo etilganligi haqida qayd qilinganini kòrishimiz mumkin. Shuning uchun Yunon-rim mualliflari tomonidan Baqtriya shohlari „Ming shaharli òlka“ hukmdorlari deb atalgan. Antik mualliflar bu jumlar bilan Baqtriyada 1000 dan ziyod shahar mavjud bòlganligi emas, balki Baqtriyada juda kòp yirik shaharlar bòlganligini ifodalamoqchi bòlishgan bòlsa kerak. Aynan shu shaharlardan biri „Termiz“ òrnida bòlganligiga shuhbasiz ishonchimiz komil. Tarixchilarga yaxshi ma'lumki, ushbu sohada tarixiy haqiqatga mos kelmaydigan manbalar ham uchrab turadi. Misol uchun, X asrda yashagan arab muarrixii at-Tabariyning yozishicha Termiz Eron shohi Kobod tomonidan qurdirilgan ekan. At-Tabariyning ma'lumoti esa tarixiy haqiqatga zid keladi. Agarda, Eron shohi Kobod 489-531-yillarda hukmronlik qilgan bòlsa, bu davrda Termiz òzining bir necha asrlik yuksak tarixiga ega edi. XV asrda yashagan Xofizi Abruning yozishicha Termizga Iskandar Zulqarnayn asos solgan. Termizga oid bòlgan ma'lumotlarning barchasini har tomonlama tahlil qilib òrganib chiqqan Tarn Oks bòyidagi Iskandariyani (Oks Aleksandriyasi) Termiz òrnida bòlgan degan xulosaga keladi. Fransuz olimi P. Bernar esa Oks bòyidagi Iskandariya shahrini Termiz òrnida yo Oyxonim xarobalari òrnida bòlgan bòlishi mumkin degan fikrni ilgari suradi. Aleksandr Makedonskiydan sòng shahar kòchmanchi qabilalar bosqini tufayli vayronaga aylangan. Miloddan avvalgi III asrda hukmronlik qilgan Salavkiylar shohi Antiox I shaharni qaytadan tiklagan va unga òz nomini bergan. Shundan sòng shahar „Oks bòyidagi Antioxiya“ deb atala boshlagan. VII asrda yashagan Ravenalik noma'lum geografning xaritasida ham Antioxiya-Tarmita shahri qayd qilinganini ham kòrishimiz mumkin. Bunda biz Antioxiya Tarmita qadimgi Termiz òrnida bòlganligini xulosa qilishimiz mumkin. Demak Termiz shahri antik dunyoda Antioxiya nomi bilan ma'lum bòlgan ekan. Uning qadimgi dunyo xaritalarida qayd qilinishi esa Termizning ancha katta va òz davrining mashhur shaharlaridan biri bòlganligidan darak beradi. Termiz tarixini yorituvchi yozma manbalar haqida tòxtaladigan bòlsak, IX asrning oxirlarida yashagan ibn Xurdobex ma'lumotlarini keltirib òtishimiz maqsadga muvofiqdir. Uning ma'lumotlariga kòra Termiz daryo bòyidagi tosh va tepalik ustida joylashgan ekan. Shunga yaqin bòlgan ma'lumotlarni Tabariy va Qudami manbalarida ham kòrishimiz mumkin. Bu manbalardan, Termiz VIII-IX asrlarda hali ham kichik bir shahar bòlganligini, X asrdan boshlab asta-sekin kattalashib borganini bilib olamiz. Termiz aholisining kòpayib yangi maydonlarni òzlashtira boshlaganligi haqida Istaxriy ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Uning xabar

qilishicha, X asr boshlarida Termiz shahriston va rabotdan tashkil topgan. Shahar qal'asi Jayhun daryosi bòyida joylashgan bòlib, unda shahar hokimining saroyi joylashgan ekan. Shahristonda juma masjidi va bozorlar bòlgan. Shahriston va robot Istaxriyning xabar qilishicha, maxsus mudofaa devorlari bilan òralgan ekan. Manbada Termiz Jayhun daryosidagi asosiy port shahar sifatida tan olingan. Kushon podsholigi davrida shahar Tarmita deb yuritilgan. Tarmita bu davrda 300 gektardan ortiq maydonni ishòol etib, Amudaryo yoqalab joylashgan qal'a va unga tutash ichki shahar, Payòambar oroli orqali òtgan kechuvni muhofaza qilib turgan Chingiztepa òrnidagi mustahkam inshootdan tarkib topgan. Tarmita ya'ni Termizda savdo-sotiq, ayniqsa xalqaro savdo rivojlangan edi. Hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, sangartaroshlik kabi sohalari ravnaq topgan bu qadimiy òlka Kushon podsholigi davrida Baqtriyaning yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlaridan biriga aylanadi. Termizning madaniy, ma'rifiy va mafkuraviy hayotida buddaviylik alohida ahamiyatga ega bòlgan, Tarmitada milodiy I asrdan boshlab dunyo dinlaridan biri-Buddaviylik bilan boòliq bòlgan ibodatxonalar barpo etila boshlangan. Ayniqsa, Kushon davlati podshosi Kanishka davrida Termiz Òrta Osiyoda buddaviylik dinining asosiy markaziga aylangan edi. Kòhna Termizdagi Qoratepa va Fayoztepa eng katta va òziga xos tarzda qurilgan buddaviylik ibodatxonalari hisoblanadi.

Termizning VII-VIII asrlar davri madaniy hayotiga nazar solsak, bu davrdagi shahar hayoti tòòrisida Xitoy manbalari keng va boy ma'lumotlarni beradi. Xitoylik buddaviy kohin-sayyohlar Syuan Szyan (milodiy 630-yil) hamda Xoy Chao (milodiy 729-yil) Ta-mi (Termiz)ni ta'riflab, shahar devorining uzunligi 20 li (1 li 0.2-0.5 km) ga tengligi, shaharda 12ta buddaviylik ibodatxonasi va ularda mingga yaqin buddaviy rohiblar borligi tòòrisida yozib qoldirganlar. VII asrning tòrtinchi choragidan boshlab Termiz va uning atrofi arab qòshinlari tomonidan egallana boshlangan. Oqibatda VII asrning oxiridan Termizda Islom madaniyati asoslarining ilk kurtaklari shakllanishi uchun muhit yuzaga keladi. Tarixiy manbalarda Termizga nisbatan, „Termiz Payòambar avlodlari-sayyidlar, saxobalar, avliyolar yashagan Movarounnahrning mashhur shaharlaridandir“ iborasining qòllanilishi Islom dunyosida al-Hakim at-Termiziy yoki Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy kabi mashhur zotlarning aynan Termizdan yetishib chiqqanligi, bu shahar ahlining Arab xalifaligi madaniyatidan Movarounnahrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri-Buxoro bilan bir vaqtda bahramand bòlganligi natijasi deb izohlash mumkin.

1220-yilning kuzida Termiz shahri òz aholisining qahramonona qattiq qarshilik kòrsatishiga qaramasdan Chingizxon boshchiligidagi mòòul qòshinlari tomonidan zabt etilgan. Chingizxon boshchiligidagi mòòul qòshinlariga qattiq qarshilik kòrsatganligi uchun bu shaharga tarixiy manbalarda „madina tul-rijol“ ya'ni „mardlar shahri“ iborasi qòllanilgan. Shuningdek Termizda zarb etilgan tangalarda ham ushbu nisbat qòllanilgan. Shahar topografiyasiga e'tibor berilsa, bu borada XIV asr arab muallifi ibn Battutaning Termiz haqidagi ma'lumotlari juda muhimdir. 1333-yilda Termizga tashrif buyurgan ibn Battuta óz sayohatnomasida „Eski Termiz shahri Jayhun bòyida barpo etilgan edi. Chingizxon bu shaharni vayron etgandan sòng yangi shaharni ikki chaqirim narida

qurishgan. Bu shaharda gavjum bozorlar va muhtasham imoratlar bòlib, uni kòplab anhorlar kesib òtadi, unda boĝ-roĝlar mòl". Sharafiddin Ali Yazdiy yangi Termiz bilan bir qatorda Eski Termizni ham tilga oladi. Temur va Temuriylar davri shahri ham aynan shimolda Kattaqum va Salavot qishloqlariga tutash bòlgan. 1404-yilda bu shaharga tashrif buyurgan ispaniyalik elchi Rui Gonzales de Klavixo „Kundaligi“ da bu shahar „Tarmit“ deyilgan. Klavixo Tarmit (Termiz) juda keng va aholisi zich joylashgan, unda tashqi devor va mudofaa istehkomlari yóq. Atrofida boĝ-roĝ, shaharni kòplab anhorlar kesib òtadi. Biz doimo xilma-xil mollar sotiladigan gavjum kòchalar va maydonlardan òtib bordik deb ta’riflab òtadi. Mahmud ibn Valining 1634-1641-yillarda yaratilgan „Sirlar dengizi“ („Baxr al-asror“) asarida Termizning tarixiy joylari kòp. Uning muhim bir qismini hukmdor qarorgohi, bozor madrasa va hashatmatli juma masjidi bor Salavot tashkil etadi. Mahmud ibn Valining asarida bu davr Termizi tóĝrisida yana kòplab ma’lumotlar mavjud.

Xulosa: Markaziy Osiyo tarixi va mintaqa xalqlarining madaniy taraqqiyotini Termiz shahri tarixisiz hamda osori-atiqalarisiz tasavvur etish nihoyatda mushkul. Jahon tarixiga munosib hissasini qòshgan va qòshib kelayotgan bu qadimiy shahar òzining taraqqiyot bosqichida kòpdan-kòp hayajonli davrlarni boshidan òtkazdi, necha ming yillar davomida tashqi dushmanlarning hujumlariga munosib qarshilik kòrsatib, „Madinat ul-rijol“ (Mardlar shahri) unvoniga ega bòldi. Balki shu sababdan Termiz shahri azal-azaldan jahon tarixchilari va olimlarining, uluĝ allomalarning diqqat-e’tiborini òziga tortib kelgandir. Bu maqolaning yozilishidan ham maqsad aynan shaharning òtmishdan boshlab to hozirgacha bòlib òtgan voqealar, tarixiy haqiqatlar va biz uchun haligacha ochiqlanmagan tariximizni yana jonlantirib tilga kiritish maqsad qilingandi. Oz bòlsa ham bunga erishdik deb óyLAYMAN. Bundan keyingi ilmiy ishlarda bu mavzuni yana ham chuqurroq òrganib, turli xil qarashlar haligacha órganilmagan kashfiyotlar qilishga imkoniyat albatta bòladi deb óyLAYMAN.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Qadimgi Termiz-Shokir Pidayev Toshkent, „Fan“ 2011
2. Termiz tarixi ( Eng qadimgi davrdan XXI asr boshlarigacha)-Azimov M. Denov: Nasaf, 2001
3. Termiz tarixi-Jaloliddin Mirzo Toshkent: Sharq, 2001
4. Eski Termiz tarixiy manbalarda-I. T. Botirov „Fan“ nashriyoti Toshkent: 2010
5. www.ziyouz.com kutubxonasi